

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(62 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(62 KB\)](#)

## **FUQAROLARNI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR HAMDA O'ZBOSHIMCHALIK BILAN QURILGAN TURAR JOYLARGA NISBATAN MULK HUQUQINI E'TIROF ETISH BO'YICHA BIR MARTALIK UMUMDAVLAT AKSIYASINI O'TKAZISH TO'G'RISIDA**

Mamlakatda aholiga, birinchi navbatda, qishloq joylarida munosib uy-joy sharoitlarini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli davlat dasturlari amalga oshirildi.

Xususan, 2009-2017 yillar davomida 81 992 ta uy qurildi, 6 624 ta uy-joy massivi barpo etildi, zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari o'tkazilishi ta'minlandi. 2016-yildan qishloq aholisi uchun yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurilishini nazarda tutuvchi sifat jihatidan yangi davlat dasturi amalga oshirilmoqda. 2017-yilning o'zida qishloq joylarida 18 mingdan ortiq qulay shart-sharoitga ega bo'lgan uylar barpo etildi.

Shuningdek, fuqarolarning qonunchilikda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida ajratilgan yer uchastkalarida yakka tartibda uy-joy qurish huquqi kafolatlangan.

Shu bilan birga, yer tuzish va kadastr organlari tomonidan o'tkazilgan respublika ko'chmas mulk fondining yalpi xatlovi yakka tartibda uy-joy qurish sohasida, ayniqsa, qishloq joylarida qonuniylikni ta'minlash masalalarida tizimli xatolar va jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilganligini ko'rsatdi.

Xususan, uy-joyga ega bo'lish va qurishning qonuniy mexanizmlari mavjud bo'lishiga qaramasdan minglab fuqarolar ko'p yillar davomida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida yakka tartibda uy-joylarni noqonuniy barpo etishgan.

Bunday holatlarning yuz berishiga davlat organlari, eng avvalo, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat, shu jumladan, yer kadastr, arxitektura va qurilish sohasidagi vakolatli organlarning beparvoligi sabab bo'ldi.

Fuqarolarga yer uchastkalarini uy-joy qurish uchun muayyan to'lov evaziga noqonuniy berish yuzasidan fermer va dehqon ho'jaliklarining til birlashtirishi bo'yicha ko'plab holatlar mavjud.

Natijada ushbu muammo butun respublika bo'yicha ommaviy tus oldi va uy-joy uchun zarur hujjatlarning mavjud emasligi aholida boshqa ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga, xususan, haqiqatda yashab turgan joyga propiska qilinishi, mulk huquqiga ega bo'lish va uni amalga oshirish imkoniyati mavjud emasligiga olib keldi.

Fuqarolarning uy-joy mulkiga kadastr hujjatlarini berishni so'rab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiga 5 mingdan ortiq, deputatlar, senatorlar, davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullarda 3 mingdan ziyod murojaatlari kelib tushgan.

Uy-joyga doir huquqlarning amalga oshirilishi va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, yer uchastkalaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, fuqarolarga tegishli bo'lgan turar joylarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda ko'maklashish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari yoki imorat qurish uchun ruxsatnoma olmasdan qurilgan turar joylariga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini (keyingi o'rinlarda bir martalik aksiya deb yuritiladi) e'lon qilish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

## 2. Belgilab qo'yilsinki, 2019-yil 1-mayga qadar:

a) mazkur Farmon qabul qilingan vaqtga qadar qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida yoki imorat qurish uchun ruxsatnoma olmasdan qurilgan turar joyga (keyingi o'rinlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat deb yuritiladi) nisbatan mulk huquqi ushbu obyektga o'z shaxsiy mulki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilayotgan shaxsga quyidagi shartlar asosida:

ushbu yer uchastkasi (uchastkaning bir qismi) unga qonun hujjatlariga muvofiq turar joy qurish uchun ajratilishi mumkin bo'lmagan yer maydonida joylashmagan bo'lsa;

o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat shaharsozlik normalari va qoidalari talablarini buzmayotgan bo'lsa, shuningdek, uning saqlab qolinishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasa yoxud fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirmasa e'tirof etiladi. O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilmaydigan aniq holatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

b) o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etiladigan Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha komissiyaning taqdimnomasiga ko'ra tuman (shahar) hokimining qarori bilan;

umumiy mulk huquqi haqidagi fuqarolik va oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalariga amal qilish sharti bilan;

eng kam ish haqining besh baravari miqdorida bir martalik yig'im to'langandan keyin amalga oshiriladi;

v) o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqini e'tirof etishda mulkdorga u qurilgan yer uchastkasiga (uchastkaning bir qismiga) qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilib, ortiqcha qismi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 121-moddasida nazarda tutilgan jarima solinmasdan zaxira yerlariga olib qo'yiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda mazkur Farmonning ijrosini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bir martalik aksiyaning amal qilish muddati tugagunga qadar:

sudlarga o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzib tashlash bo'yicha da'vo kiritish to'xtatib turilishini, qonun hujjatlariga asosan turar joy qurish uchun ajratilishi mumkin bo'lmagan yer maydonida joylashgan yer uchastkasida (uchastkaning bir qismida) qurilgan obyektlar bundan mustasno;

sudlarning turar joy sifatida foydalanilayotgan o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzib tashlash to'g'risidagi ko'rib chiqilayotgan da'volar hamda ijro qilinmagan qarorlari bo'yicha belgilangan tartibda kelishuv bitimlari tuzilishini ta'minlasinlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi joylarda Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha komissiya faoliyatida qonuniylikning ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

## 6. Belgilab qo'yilsinki:

o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bir martalik xarakterga ega hamda mazkur Farmonning 2-bandida ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmasdan amalga oshiriladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, boshqa vakolatli organlarning mansabdor shaxslari keyinchalik o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga yo'l qo'yganliklari uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ikki oy muddatda:

bir martalik aksiyaning amal qilish muddati tugagandan keyin o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish mumkinligi to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini bekor qilishni;

o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

8. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mazkur Farmonning mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi Adliya vazirligi hamda Qurilish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

10. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori O.B.Murodov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2018-yil 20-aprel

*Ko'rib chiqildi:*

 

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)